

Ertaklar asosida insho yozish orqali o'quvchlar dunyoqarashini shakllantirish

M.Hazratqulov (SamDU)

Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, unda ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydi.

Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo'ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik ruhida tarbiyalab kelgan. Ertaklarni ko'p eshitgan, o'qigan bolalarning dunyoqarashi keng, axloq normalari shakllangan bo'ladi. Chunki ertaklar bolaga ma'naviy ozuqa berib qolmay, uni kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishida yo'lchi yo'ldoshdir.

Ertaklar yaratilishiga ko'ra: xalq tomonidan yaratilgan ertaklar va yozma ya'ni adabiy ertaklardir. Bunday ertaklar jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Bular orasida chet el ertaknavislaridan Sharl Perro, Aka-uka Grimmilar, Hans Kristian Andersin, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy va boshqalar yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. O'bek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy, H.H.Niyoziyilar o'zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar. Shu bilan birgalikda H.Olimjon, Sh.Sa'dulla, Sulton Jo'ralarning ertakchilik sohasidagi an'alarini X.To'xtaboyev, A.Obidjon, T.Adashboyev, O'Imonberdiyev kabi ertaknavis muallafimiz davom ettirdilar.

Andersen o'z ertaklarini yaratishda xalq ogzaki ijodidan unumli foydalandi, ularning orzu armonlarini qog'ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi harakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun ham Andersen yaratgan barcha ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo'lish bilan birga o'quvchilar xotirasida uzoq, vaqt saqlanib qoladi.

A.S.Pushkinning xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan "Shoh Saltan haqida ertak", "Baliqchi va baliq haqida ertak", "Oltin xo'roz haqida ertak", "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" singari asarlari asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmagan va ular yuqorida nomlari sanalgan ertakchilar singari bolalar adabiyotida muhim o'rin tutadi.

Buyuk fransuz shoiri va tadqiqotchisi Shaprl Perroning "Qizil Shapkacha" asari hozirgi kungacha butun dunyo bolalalarining ajoyib qahramoni siufatida tanilib kelmoqda. Adib ertaklarining barcha qahramonlari o'z mehnatsevarligi, bilimdonligi bilan ajralib turadi.

Ertaklarning mavzulari xilma-xilligi bilan ham e'tiborni o'ziga jalb qiladi. Ularda turli sarguzashtlar, mo'jizaviy hayot tasviri, adolatning g'alaba qilishi, insonning fazilatlarini madhi keng o'rin olgan. Bunday asarlarda ayniqsa, tasviriy san'atlardan, mubolig'adan qayta-qayta foydalaniladi. Eng muhimi tinglovchi yoki kitobxon mubolig'alarning birontasiga shubha bilan qaramaydi. Masalan, "Bulbuligo'yo" ertagida daraxtning barglari zumraddan, mevalari oltindan bo'ladi. Ammo bunday mo'jizalarning sodir bo'lishi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Sehrli ertaklarda tilsimli narsa – predmet haqida ham fikr yuritilgan. Masalan:

daryoga aylangan oyna, changalzorga aylangan taroq kabi tasvirlarga keng o`rin beriladi. Ertaklarda inson xayoli naqadar cheksiz ekani namayon bo`ladi. Ularda kelajakka ishonch ruhini uyg`otgan. O`z orzuidagi dunyoqarashlarni shakllantirishga muhim manba vazifasini o`tagan. [6.257]

Mashhur va taniqli folklorshunos olimlarning takidlashicha, turli xalqlar ijodida uchraydigan ertaklar orasida eng ko`p uchraydigani sehrli ertaklardir. Bunday ertaklarni ko`pincha asar qahramoniga nimanidir yetishmasligi, qahramonning bu narsaga ega bo`lishi, qandaydir ishni taqiqlash, kuchli raqibning mavjudligi, xavfli safarga chiqish kabi lavhalar birlashtirib turadi. Eng muhimi sehrli ertaklarda turli mavzular, afsungarliklar, fantastik tasvirlar yetakchilik qiladi. Chunonchi, Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertragining boshlanishida aytgan: "O`zi uchar gilamlar", "O`t bog`lagan qanotlar", "Beqanot uchgan otlar", kabi misralar aynan sehrli ertaklar ta`rifiga to`g`ri keladi. Sehrli ertaklarda mifologik dunyoqarash belgilari alohida, aniq seziladi. Chunki uzoq qadim zamonlarda totem hisoblangan ilon, semurg` va fetish hisoblangan yer, quyosh, suv kabi tushunchalar an`ana bo`lib mazkur ertaklarga o`tgan. Natijada, "Semurg'", "Dev", "Yalmog`iz", "Mehrigiyo", "Ur to`qmoq" kabi namunalar xalq orasida ajdodlarimizning fantastik hodisalarga ishonch hissi yuqori bo`lganligini ko`rsatib turadi. Shuningdek, televideniye, telefon, masofa orqali boshqaraladigan qurilmalar, samalyot, aftomabillarning paydo bo`lishi ko`p jihatdan sehrli ertaklardagi orzular natijasi sifatida boshlanishi mumkin.

Psixologlarning ta`kidlashicha, bola 3—7 yoshdalgida har narsaga qiziquvchan, eslab qolish qobiliyati kuchli va taqlidchi bo`ladi. Ayniqsa, u ko`rgan kinosining, multfilm va eshitgan ertaklarining qahramonlariga o`xshashga harakat qila boshlaydi.

Demak, ular Zumradning ijobiy fazilatlar egasi ekanligini anglab yetishgan. Ba`zan onaning erkatoiy, taniq qizini yoki o`sma qo`yayotganda qoshiga o`smani chiroyli qo`ya olmagan qizni qimmatga qiyoslasangiz uning jahli chiqadi. Aksincha, Zumradga qiyos etilgan qizlar hech qachon hijolatda qolmaydilar.

"Zumrad va Qimmat" ertagi o`zbek xalq ertaklarining maishiy ertaklar turkumiga kirib, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan boshqalardan farqlanib turadi. Bu ertak og`zaki ijodning ajoyib namunasi bo`lib, bolalar maktabgacha tarbiya davridan oldinroq ertakni qayta-qayta eshitishgan bo`ladi. Shuning uchun ham bu ertak asosida insho yozish boshlang`ich sinf o`quvchilariga og`irlik qilmaydi. Biroq o`quvchilar inshoga tayyorgarlik ko`rishayotgan paytda o`qituvchi insho sujetini yana bir bor eslatib o`tishi, unda sodir bo`lgan voqealarga o`z munosabatini asosli holda ko`rsatib o`tishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Ertak jujeti quyidagicha:

Zumrad aqlli va mehnatkash qiz. Shu bilan birga hayvonot olamiga, jonivorlarga mehribon. Qimmat esa uning aksi: o`jar, tanti, ishyoqmas. Takabbur va badjahl ona faqat o`z qizini- Qimmatni yaxshi ko`radi. Zumrad faqat unga yoqmaganligi uchungina uni uydan ketkizmoqchi bo`ladi. Chol yuvoshligi va oddiyligi uchun ham badjahl kampirning aytganlarini qilishga, qizini o`rmonga olib borib tashlab kelishga majbur bo`ladi.

O'rmonda yolg'iz qolgan Zumrad yolg'izlanib ham qolmaydi, yirtqich hayvonlarga ham yem bo'lmaydi, chunki unga yordam berguvchilar doimo topilaveradi.

Zumrad o'rmonda bir chiroqni ko'rib qoladi. Yaqin borib taqqillatsa, eshikni bir kampir ochadi. Zumradning adashib qolganini eshitgan kampir unga rahmi kelib, uyiga kiritadi. Zumrad aqlli qiz bo'lgani uchu kampirning yumushlariga qarashadi: uyni supuradi, ovqat pishiradi. Kampir Zumradning ishlaridan mamnun bo'ladi. Aslida kampir oddiy kampir emas, sehrli kampir ekan. Tomga chiqib, o'z uyini ko'rib qolib xafa bo'lgan Zumradga u qizil sandiq sovg'a qiladi. Shunday qilib, hayotda yaxshi fikrlaydigan, mehribon, hammaga yaxshilik qiladigan qizga hayot yaxshiliklarni tuhfa qiladi.

Zumradning qimmatbaho sovg'alar bilan kelganini ko'rgan tanti qiz Qimmat ham shunday narsalarga erishishni xohlaydi. Biroq uning yomon niyati, dangasaligi, xudbinligi umriga zomin bo'ladi.

O'qituvchi ertak yakunida hayot qonuniyatlari o'ta mukammal ekanligini, har bir sababning oqibati mavjud bo'lishini, asrlar davomida shakllangan Islom ta'limotida "Zarra misqolchalik yaxshilikning ham, zarra misqolchalik yomonlikning ham javobi bo'ladi" degan hadis borligini eslatib o'tishi o'quvchilarning ertak haqida o'z mulohazalarini to'g'ri va aniq bildirishlariga yordam beradi.

O'quvchilar oldin bir necha marta eshitib shunchaki huzurlangan ertak voqealarini sinchiklab analiz qilishga kirishadilar. Analiz jarayonida voqealar tahlili to'g'ridan to'g'ri ichki ongga yo'naltiriladi. Zumradning boshdan kechirganlarini yanada aniqroq his qiladilar, Qimmatning kamchiliklarini to'lig'icha tushunadilar. Chunki har bir munosabat bildirilgan fikr sinchkovlik bilan qog'ozga tushiriladi.

Demak, shaxs tarbiyasi borasida o'qitilayotgan pedagogik-psixologik adabiyotlarimizda, umuman, o'rta ta'lim tizimida yetishmayotgan birgina jihat bu-tarbiya va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi aloqa munosabat shakllarining o'ziga xos qonuniyatlari ishlab chiqilmaganligidir. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, shaxs tuzilishini-ongi, aqli, tuyg'ularini, uning fiziologik va ruhiy jihatlarini qotib qolgan tushuncha va atamalar bilan emas, balki yangi zamonaviy fan yutuqlari bilan asoslash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Sinergetika tushunchasi XX asrning oxirlarida G. Xansi va Prigojinlar tomonidan taklif qilingan bo'lib, bu so'z grekchadan o'girilganda ochiq sistemalardagi struktural elementlari orasida energiya va modda almashinuvi jarayonini anglatadi.

Bu sohada muhim tadqiqotlar olib borayotgan SamDUNing "Kvant fizikasi" kafedراس dotsenti E.Eshmatovning fikricha, o'rgatuvchi o'rganuvchining axborot tizimi bilan tegishli aloqa bog'lay olib, uning ichki energetik strukturasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish mahoratiga ega bo'lgandagina o'zining vazifasini bajargan bo'ladi.

Bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, biz faqat ko'rgan va isbotlangan narsalarga asoslanib xulosa chiqaramiz. Masalan, tabiatdagi turli hil axborot va energiya almashinuvi jarayonlari (yorug'lik nuri, elektr va radio to'lqinlar)ni

kuzatamiz. Shuningdek, bunday jonsiz moddalarning ichki energetik strukturasini va ta'sir jarayonini bevosita fizik asboblardan bilan qayd qilish mumkin. Biroq insonda kechadigan ruhiy-psixologik o'zgarishlar ham ana shunday kichik energiyalar o'zgarishi oralig'ida yuz bersada, bu jarayonlarni fizik asboblardan yordamida nazorat qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham biz tashqi ta'sirlar tufayli inson ichki energetik strukturasida yuz beradigan o'zgarishlarni asosan ularning xatti-harakatlariga va munosabatlaridagi o'zgarishlariga qarab baholab kelganimiz. Shu sababdan ham tabiiy fanlar va gumanitar fanlar orasida qonuniyatlar yo'q deb hisoblanib kelingan.

Ruhiy-psixologik jarayonlar bilan bog'liq turli-tuman g'ayritabiiy (aslida tabiiy) voqea va hodisalar bizdan o'z isbotini talab qiladi. Jonsiz predmetlarda mavjud bo'lgani kabi tirik organizmda ham ichki energetik struktura mavjud. Ichki energetik struktura ta'sir qilish mexanizmi orqali ba'zi muommolarga aniqlik kiritishga harakat qilib ko'ramiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisiga "Suv-hayot manbai" mavzusida 1 soatlik tarbiyaviy soat darsini o'tishni taklif qildik. 45 minutlik dars tugagandan so'ng sinfdagi o'ttiz o'quvchini anhor bo'yiga sayrga taklif qildik. Sayr chog'ida kelishilganidek ularning har biriga bittadan qog'ozli qand tarqatib hoziroq yeyishini tayinladik. Oradan o'n minut o'tgach shu narsa ma'lum bo'ldiki, 30 o'quvchidan 11tasi konfet qog'ozini suvga tashashgan, 9tasi yerga tashashgan, 4 o'quvchi konfet qog'ozini qo'lida ushlab turgan, qolgan o'quvchilar konfetni yemagan.

Hozirgina "Suv-hayot manbai" mavzusida dars o'tilishiga qaramay, o'quvchilarda hech qanday ta'sir effekti sezilmagan. qanday xatoga yo'l qo'yildi? Odatda bir necha javoblar tayyor: "o'qituvchi yaxshi dars o'tmagan", "o'quvchilar darsni yaxshi tinglashmagan", "o'quvchilar darsda e'tiborsiz o'tirishgan" va boshqalar. Bu javoblarni odatda bitta javob bilan asoslash mumkin. Agar o'rgatuvchi tegishli usulni tanlab o'rganuvchining energetik strukturasiga o'zgartishlar hosil qila olsagina ta'lim jarayoni bajarilgan hisoblanadi. Demak, ta'lim jarayonini o'rgatuvchining energetik maydoni bilan o'rganuvchining energetik maydoni orasidagi axborot almashinuvi jarayoni deb qarash mumkin.

Odatda bu jarayonga fiziologik va psixologik nuqtai nazardan yondashilib, ma'lumotlar ko'z, quloq va boshqa tuyg'ular orqali bosh miyaga uzatilishi, bosh miyaning javob reaksiyasi sifatida orqa miyaga uzatilishi va shunga o'xshash ta'sir vositalari orqali izohlanadi. Aslida bu yerda o'rganuvchi va o'rgatuvchilarning energetik strukturalaridagi axborot almashinuv jarayonigina muhim hisoblanadi. Albatta, bu yerda o'rgatuvchining o'rganuvchi bilan o'zaro axborot almashinishni amalga oshira olish qobiliyati mavjud bo'lishi kerak. Shundagina u o'rganuvchining energetik strukturasiga o'zgartirish yuzaga keltira oladi.

Ikkinchi o'tkazilgan tajriba bunga misol bo'la oladi. Biz bu tajribada yuqoridagi holatni qaytadan takrorladik. Faqatgina bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga "Suvni asraymiz" mavzusida insho tashkil qilishni tavsiya qildik. Inshoni tashkil etishda o'quvchilarga yordam sifatida "Tomchivoy", "Bulutcha"

singari ertak matnlaridan foydalanildi. O'quvchilar 45 minut mobaynida ertaklar asosida insho yozdilar. So'ng yana o'quvchilar sayrga taklif qilindi.

Tajriba tugagach, yashirin kameradagi tasvirni kuzatdik. Natija quyidagicha: 30 o'quvchidan 1tasi konfet qog'ozini suvga tashlagan, 4 o'quvchi yerga tashlagan, qolgan o'quvchilardan o'n nafari nariroqdagi axlat tashlanadigan joyga, konfet qog'ozlarining qolgan qismi o'quvchilarning qo'lida qolgan.

Natija yaxshi chiqdi. Bunga sabab o'rgatuvchining tegishli axborotni qay usulda o'rganuvchining energetik strukturasi singdirishi edi. O'quvchilarning insho yozish orqali voqealarni qayta-ayta analiz-sintez qilishdilar. Shuningdek, jarayonga o'z munosabatlarini ham qo'shdilar. Masalaning eng muhim tomoni shunda ediki, ertaklar bolalar ongiga kirib borishning eng oson va soda usuli edi. Ertak eshitishni xohlamagan bola bo'lmaydi. Shunday ekan, xabar tarzida berilayotgan axborot dasturi ertak matni tarzida berilganligi ba o'quvchilarning insho yozish orqali matnni analiz qilishlari muammoni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sabab ham ta'lim-tarbiya samarasini ko'rsatdi.

Insho yozish ko'nikmasini shakllantirish aslida boshlanich ta'lim davridan boshlansada, uning elementlarini maktabgacha tarbiya davridayoq kuzatish mumkin. Bola gapirishni boshlaganidayoq narsalar, atrof olam, borliq bilan qiziq boshlaydi. "Bu nima?" "Nega samalyot ucha oladi?" "quyosh qayerdan chiqadi?" singari savollar paydo bo'la boshlaydi. Ularga javob topishga harakat qiladi. Javob topish asnosida qisman ularga o'z munosabatini ham shakllantiradi. Xuddi shu jarayon, bolaning shaxsiy munosabat bildirish istagi inshoning ilk kurtaklari sifatida bo'y ko'rsatadi.

Insho o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantirish bilan birga ta'lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb eta oladi. Ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun matn asosida tashkil qilingan rivoya shaklidagi insholar muhim o'rin tutadi. Matn mavzusini tanlashda kichik hajmdagi ertaklardan foydalanish samaralidir.

Ertaklarni bola ichki dunyosining eng ichki qavatlarigacha kirib bora oladigan, u yerda o'ziga xos o'zgarishlar yasay oladigan mo'jizaviy qurol deb hisoblash mumkin. Faqat bu quroldan foydalana bilish kerak, xolos.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ichki energetik strukturasi sistemaviy xususiyatlarni o'zgartirish bu shaxsning fe'l-atvori, odob-axloqi, ichki dunyosida o'zgartishlar yasash demakdir. Ilmiy xulosalar va tajribalardan kelib chiqqan holda inson vujudidagi yuzaga keladigan ko'zga ko'rinmas ruhiy-psixologik o'zgarishlar o'ziga xos ilmiy tadqiqni talab etadi. Tahlil va natijalar inson hayotining ma'lum bir izchil qonuniyatga asoslanishini va insoniyatga ezgulik keltirishi mumkin ekanlik tamoyiliga asoslanadi.

Адабиётлар:

1. Karimov.I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008. 208 s.
2. Jumaboyev.M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent. O'qituvchi. 2011. 246 s.
3. Yusupov.M, Abdullayeva.q. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 306 s.
4. Shermatov.E. Uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishda senergetika tamoyillarining roli. SamDU.2007. 254 s.
5. Husanboyeva.Q. Tahlil adabiyotni anglash yo'li. Toshkent. Sharq.2013. 346 s.
6. O'zbek xalq ertaklari. 1-tom. T. Ma'naviyat. 2010. 380 s.